yoki ularni jinoyat to'g'risidagi xabar sifatida qabul qilmaslikka yohud baholashga olib keladi. P.A.Skoblikovning xavotiri o'rinlidir. Sh.Kayumov jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini kamsitilishiga olib keladi [8]. V.P.Korj, shu bois Ukrainada jinoyat haqidagi qayd etilgan ariza yoki xabarlarining 100% dan atigi 40% ish yuritishning kelgusi bosqichiga o'tadi. 60% esa, jinoyat yuz bermaganligi yoki boshqa huquqiy (mehnat, fuqaroviy, oilaviy) munosabatlar tashkil etadi [9]. Bunday holatlarda jinoiy ishlar reabilitatsiya asosida tugatilishi ko'p bo'ladi. Mazkur masalalar mamlakatimiz parlamenti diqqat markazidadir.

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "Mamlakatda jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurash holati to'g'risida"gi 2018 yil 11 avgustdashi 1896-III-sonli qo'shma qarorida, tezkor-qidiruv ishlari to'g'ri tashkil qilinmaganligi sababli, umumiy jinoyatlarning 6 foizi, jinoyat-qidiruv yo'nalishidagi jinoyatlarning 8,1 foizi fosh etilmagan. Tergov va sud organlaridan yashiringan qidiruvdagi shaxslarning 71,5 foizi ushlanmagan. Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jinoyat haqidagi ariza va xabarlarini qayd etmaslik yo'li bilan jinoyatlarni hisobdan yashirish holatlariga hamon barham berilmagan. Xususan, 48 ta jinoyatlar qayd etmaslik yo'li bilan hisobdan yashirilgan [10].

Misol uchun, Senatda hisobot bergan mamlakat Bosh prokurorining ma'ruzasida 2019 yilda sodir etilgan jinoyatlarni qayd etmay, qasddan yashirganlik holati bo'yicha 25 nafar ichki ishlar xodimlariga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilib, ularning 21 nafari sud tartibida javobgarlikka tortilgan. Masalan, 2006-yilda chirchiqlik fuqaro Qamchiqboeva tanishi Husainovga qarzga bergan 300 AQSh dollarni so'rab borganida qarzdor tomonidan o'ldirib yuboriladi. Shundan keyin ayolni qidirib uning ukasi, so'ng onasi Husainovning oldiga keladi va ular ham qotillik qurboniga aylanadi (keyinchalik qotil har uchala qurbonining jasadini Chirchiq daryosiga tashlab yuborgani aniqlanadi). Eng yomon tomoni shundaki, bir oilaning uch a'zosi yo'qolgani haqida ularning yaqinlari bergan arizasi Chirchiq shahar IIBda qayd qilinmagan va yashirishgan [11].

Shu bois, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan jinoyat haqidagi ariza va xabarlarini qayd etmaslik yo'li bilan jinoyatlarni hisobdan yashirish holatlariga barham berish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga yangi 241¹-moddasi kiritildi. Unda, jinoyatlar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish yoki ko'rib chiqish xizmat vazifalariga kiradigan mansabdor shaxsning jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirishi jinoiy javobgarlik keltirib chiqarishi nazarda tutildi [12].

Yuqorida qayd etilgan masalalar O'zbekistonda ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonining 17-maqsadida, "huquq tartibot organlarida jinoyatlar haqida xabarlarini hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanish masalalariga e'tibor qaratilgan" [13].

Jinoyat protsessual bosqichlarni qisqartirish bo'yicha bahs-munozalarni davom ettirgan holda, A.A.Kasimov jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichini bekor qilishning afzalliklari ham, kamchiliklari ham mavjud. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichini bekor qilishning afzallik tomonlaridan biri - bu ushbu bosqichda mavjud bo'lgan korrupsiyadan xolos bo'lamiz. Muammoli tomoni esa, shaxslarni ommaviy ravishda jinoyat ishiga jalb qilish holatlari yuzaga keladi. Biz, yuqorida A.A. Kasimov tomonidan bildirilgan fikriga ko'shilmagan holda,

birinchidan, korrupsiya masalasi u yoki bu bosqichda ham sodir etilishi mumkin, ikkinchidan, dastlabki tergovda shaxslarni asossiz ro'yxatga olinishi va shaxslarga nisbatan keng ko'lamli tekshirishlar xavfini oshirishga olib keladi.

Ko'rinib turibdiki, jinoyat ishini qo'zg'atish va dastlabki tergov bosqichi o'rtasida o'zaro chegaralarini belgilash muammosi hal qilish zarurati yuzaga keltirmoqda, bu esa amalda suiiste'molliklarni oldini olishga xizmat qiladi.

O.V.Sidorenko fikricha, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi institutini rad etish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu bosqich odil sudlov tizimida muhim huquqni muhofaza qilish funksiyasini bajaradi, ayniqsa shaxslarni noqonuniy jinoyat ishlariga jalb qilish oldi olinadi [14].

Bizning fikrimizcha, Ukraina va Gruziya davlatlarining Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar mazmuniga emas, balki uning amal qilish tajribasini, ya'ni uning natijalarini sinchkovlik bilan o'rganish zarur. Albatta, natijasi hammaga ma'lum, dastlabki tergovda jinoyat ishlari soni jihatdan, shaxslarni asossiz ishlarga jalb qilish ko'payishiga olib kelgan.

Aytish lozimki, milliy qonunchilikka har qanday takomillashtirish kiritish albatta har bir davlatning ob'ektiv asoslariga tayanishi kerakligini ham unutmasligimiz kerak. Bunda eng avvalo milliy mentalitet, shakllangan tarixiy an'analarni hisobga olish va huquq tizimidagi va amaliyotdagi muammolardan kelib chiqib o'zgartirish lozim. Chet el ya'ni, xalqaro standartlarni to'g'ridan-to'g'ri nusxalash, qoida tariqasida, salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ukraina va Gruziya jinoyat protsessual qonunchiligidagi jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichini bekor qilishda qonun chiqaruvchilari o'zlarining tarixiy tajribasiga tayanmay, jinoiy ish yuritishning anglo-sakson modellarini nusxa olish, balki ushbu o'zgarishlar ko'proq siyosiy masalalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Anglo-sakson huquq tizimi bo'yicha jinoiy ish yuritadigan davlatlarda xususiy ayblov asosida va taraflarning teng huquqliligi modeli asosida ish yuritiladi. Mazkur jinoiy ish yurituvining o'ziga xos tomoni shundaki, xususiy ayblov tomon va himoya tomon o'z foydasi uchun mustaqil dalillarni to'playdilar va sudga taqdim etadilar. Ularda dastlabki tergov bosqichi mavjud emas. Bizning huquq modelimizda ish yuritish ommaviy (davlat) ayblov xarakteriga ega. Bunda hal qiluvchi rol jinoiy ta'qib qiluvchi davlat (prokuratura, DXX, IIV) organlariga tegishlidir. Anglo-sakson huquq tizimida faqat sud (bosqichida) jarayonlarida tomonlar tortishuvchanlik prinsipi asosida o'tkazilishi mumkin. Kontinental huquq tizimida ham qidiruv, dastlabki tergov va sud bosqichi kombinatsiyasi asosida ish yuritiladi. Shuningdek, barcha bosqichda tomonlar teng va tortishuvchanlik prinsipi asosida o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishlari mumkin. Shuning uchun ularning (anglo-sakson) modeli ijobiy deb baholab bo'lmaydi va bizning milliy jinoiy qonunchiligimizga asos bo'lib ko'rsatma bo'la olmaydi.

Endi, jinoyat ishini qo'zg'atish jarayonini saqlab qolish bo'yicha olimlarning fikrlarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Masalan, jinoyat protsessida jinoyat ishini qo'zg'atishni avtonom sifatida saqlab qolish zarur deb hisoblaydigan protsessualist olimlar ham mavjud [15].

Xususan, G.P.Ximichevaning fikricha, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi jinoyat alomatlari mavjudligini dastlabki tekshirish uchun saqlab qolishi zarur va bu tergov o'rtasidagi uzviy chegara sifatida belgilanadi [16].

V.S.Michurin, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi dastlabki tergov bosqichi o'rtasida o'ziga xos filtr vazifasini o'taydi. Ushbu bosqichda jinoyat haqidagi xabarlar tekshiriladi, shaxslarni jinoyat ishiga noqonuniy jalb qilish oldini olinadi, bu esa fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun ham, qonun buzilishining oldini olish uchun ham bir xil darajada muhimdir, deb hisoblaydi [17]. Demak, ushbu bosqichda tergovga qadar tekshiruv organlari mansabdor shaxslari, bir tomondan, jinoyat alomatlarini aniqlangan har bir faktga munosabat bildirishsa, ikkinchi tomondan, asossiz jinoyat ishini qo'zg'atishga yo'l qo'ymaslikka erishiladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida jinoyat haqidagi ariza sinchkovlik bilan tekshirilsa, keyingi tergov harakatlarini o'tkazishning asosililigini yuzaga keltiradi [18]. Chindan ham, yuqorida Sh.Uzakovning keltirilgan tergovga qadar organlarining jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida chiqarilgan qarorlar va qo'zg'atilgan jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi keyingi qarorlar sonining nisbati (statistik ma'lumotlar) ko'pgina qonunbuzilishlar mavjudligini ko'rsatadi. Aynan, ushbu bosqichda amaliyotda noqonuniy jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish hollari ko'pdir. Sh.Kayumov, ushbu bosqichda jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarining huquqlarini himoya qilish zarurati yuqoridir, negaki aynan ushbu bosqichda noqonuniy jinoyat ishlarini qo'zg'atishni rad etish yoki yashirish holatlari ko'pdir. Bundan tashqari, ushbu bosqichda qonuniylikni ta'minlashga alohida e'tibor berishni taqazo etadi. Agar huquqni muhofaza qilish organlari qonuniylikdan og'ishish masalasi davom etaversa, unda milliy jinoyat protsessual qonunchiligiga xususiy ayblov institutini joriy qilish lozim. Shundagina har qanday jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarda o'z buzilgan huquqlarini tiklash imkoniyati paydo bo'ladi [19].

Tahlil va natijalar. Bunga Bosh prokuratura tomonidan keltirilgan statistik ma'lumotlar yaqqol misol bo'laoladi.

Ko'rsatkichlar	2022	2023	2024	2025
Jinoyat ishi qo'zg'atish rad qilish haqidagi bekor qilingan qarorlar soni	1 513	1 240	1 182	744
Jinoyatchilikni yashirish holatlari			22	2 (6 oy ichida)
Tergovda ayblanib, sud hukmi bilan rehabilitatsiya etilgan shaxslar soni	200	248	233	115

Bosh prokuratura tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar begunoh shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish xavfi, shuningdek, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari sohasiga majburan aralashish ehtimoli kuchayganini dalolat qiladi.

Qonunga binoan jinoyat ishini qo'zg'atishning asosiy vazifalari jinoyatlar to'g'risidagi xabarlarni qabul qilish, ro'yxatga olish va hal qilish, bir vaqtning o'zida jinoyat izlarini qayd etish hamda jinoyatning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rishdan iboratdir (JPK 329-modda).

S.I.Girkoning fikricha, qonunga xiloflikni o'z ichiga olgan real voqealar mavjud bo'lgandagina (ariza yoki xabar berish orqali) ish yuritishni qo'zg'atish zarur [20]. A.I. Makarkin, ushbu holat jinoyat ishini yuritishning dastlabki payti sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Shundagina u, ehtimol, bosqich tushunchasiga mos keladi [21]. I.S.Dikarev ham yuqoridagi protsessualist olimlarni fikriga qo'shilgan. Uning ta'kidlashicha, ushbu bosqich

jinoiy hodisa yuz bergan yoki bermaganligini aniqlash, aybdor shaxslarni fosh qilish uchun qaratilgan. Holatga oydinlik kiritilgandan so'ngina keyingi (bosqichga) protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun huquqiy asos yaratadi va bu shaxslarga jinoyat-protsessual majburlov choralarini qo'llash sohasidan ajratib turadigan o'ziga xos chegaradir [22].

Jinoyat ishini qo'zg'atishni muhimligi to'g'risida so'rovnomada ishtirok etganlarning 84% maqullashgan. Jinoyat ishi qo'zg'atishni bekor qilish oqibatida protsessual huquq tizimida strukturaviy muammolar yuzaga kelishi to'g'risida A.D.Boykov o'rinli fikr bildirib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, Kodeksdan prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan har qanday normani chiqarib tashlash zanjirli reaksiyaga (ta'sir) olib keladi: 1) tarmoq tizimi buziladi; 2) institutlar va normalar uzviy aloqalari yo'qoladi; 3) huquqiy tartibga solish samaradorligi pasayadi, ya'ni jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligi keskin tushub ketadi [23].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, ushbu bosqichni saqlab qolish, **birinchidan**, jinoyat ishini qo'zg'atishning qonuniyligi va asoslilikini ta'minlaydi; **ikkinchidan**, jinoyat ishiga asossiz ravishda fuqarolarni jalb qilish oldi olinadi; **uchinchidan**, ushbu bosqich o'ziga xos filtr vazifasini o'taydi; **to'rtinchidan**, "ayblov qo'yish"dan qo'shimcha to'siq bo'ladi.

Ishni yuritishning dastlabki bosqichidagi muammolardan biri bu uni nomlash masalasi bo'lib qolmoqda. "Jinoyat ishini qo'zg'atish" atamasi yuridik tilda bir necha ma'no kasb etadi. N.V.Jogin va F.N.Fatkullin fikricha, "jinoyat ishini qo'zg'atish" iborasini, birinchidan, jinoyat to'g'risidagi xabar bo'yicha dastlabki tergovni boshlash to'g'risida qaror qabul qilish tartibini tartibga soluvchi jinoyat-protsessual institut sifatida; ikkinchidan, jinoyat to'g'risidagi xabarni tekshirish natijalari bo'yicha protsessual qaror (jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror) sifatida; uchinchidan, sabab kelib tushgan paytdan to asos aniqlangunga qadar bo'lgan jinoyat-protsessual faoliyatning bir qismi, ya'ni jinoyat protsessining bosqichi sifatida talqin qilish mumkin [24]. Jinoyat ishini qo'zg'atish bilan bog'liq nomlanish boshqa protsessualist olimlar ham e'tiroz bildirganlar. Jumladan, M.S.Strogovich, S.I.Girkolar "ish" so'zi, "jinoyat ishi" iborasi va "qo'zg'atish" atamasining lug'aviy ma'nosini tahlil qilib, "jinoyat ishini qo'zg'atish" tushunarli tilda "jinoyatni keltirib chiqarish, o'zgartirish, muayyan voqeani jinoiy hodisaga aylantirish, masalan, janjalni mushtlashuvga va oxir-oqibat qotillikka aylantirish" degan xulosaga kelgan [25]. Protsessualist olimlar jinoyat ishini qo'zg'atish bosqich atamasini turlicha nomlash taklif etadilar. Masalan, jinoyat haqidagi arizani ko'rib chiqish; tergov qilish zarurligi to'g'risidagi masalani hal etish bosqichi; jinoyatlar to'g'risidagi xabarlarni ko'rib chiqish va hal etish bosqichi [26]. Xorij mamlakatlari qonunchiligiga yuzalanadigan bo'lsak, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ushbu bosqich, "Jinoyat ishi bo'yicha sudga qadar ish yuritish" deb nomlanadi (6-bo'lib) [27]. Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida "Sudga qadar ish yuritishning boshlanishi va tartibi" (20-bob); [28] Tojikiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida Jinoyat ishi bo'yicha sudga qadar ish yuritish (VI bo'lim) [29].

Albatta, jinoyat protsessual qonunchilikda keladigan iboralar yuridik texnika qoidalariga muvofiq bo'lishi lozim, qonunda keltirilgan atama bir ma'noli bo'lishi lozim va ikki tomonlama talqin qilishga yo'l qo'ymaslik lozim. Ta'kidlash lozimki, "jinoyat ishini qo'zg'atish" iborasi sodir etilgan jinoyat bilan bog'liq bo'lgan tushunchani beradi. Shu sababli, ushbu atamani qo'llash maqsadga muvofiq emas. Bizning fikrimizcha, jinoyat to'g'risidagi ariza va xabar tekshiriladigan bosqichning o'zini jinoyat ishini qo'zg'atish deb atash noto'g'ridir. Shu bois, JPKning 41-bobi nomlanishi aniq aks ettiruvchi atama bilan ifoda etish talab qilinadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, JPKning 41-bobi nomalanishini quyidagicha o'zgartirish taklif etiladi: "Jinoyat to'g'risidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni tergovga qadar tekshirish".

Mazkur atama ish yuritishning dastlabki bosqichini bildiradi va quyidagi xususiyatlarga ega: a) jinoyat haqidagi dastlabki ma'lumotlar bilan bog'liqlik; b) jinoyat sodir etilgan yoki etilmaganligini aniqlashga qaratilgan tekshirishni; v) dastlabki tergov oldidan ish yuritishning asosiy bosqichi sifatida.

Bundan tashqari, qonun chiqaruvchi JPKning 15-moddasida jinoyat ishini qo'zg'atish vakolatga ega bo'lgan sub'ektlar doirasida tergovga qadar tekshirish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar nazarda tutmagan. Vaholanki, ushbu qoida Kodeksning 331-moddasiga zid kelmoqda. Unda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs jinoyat ishini qo'zg'atish vakolatiga egaligi aniq belgilab qo'yilgan. Shu bois, JPKning 15-moddasi 1-qismi quyidagi mazmunda to'ldirish taklif etiladi:

"Tergovga qadar tekshiruv yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga mansabdor shaxslari, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda, o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko'rishlari shart".

Shunday qilib, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining mamlakatimiz jinoyat protsessining mustaqil bosqichi sifatida qaraladi va muhim ahamiyatga ega (JPK 320-modda). Jinoyat-protsessual tizimning ajralmas va majburiy bosqichi hisoblanadi. Jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar protsessual majburlov choralari qo'llanilmaydi va faqat jinoyat holatlari mavjud yoki mavjud emasligini aniqlaydi. Agar ariza va xabarlar tekshirilgandan so'ng, jinoyat holatlari mavjudligi aniqlansa zarur materiallar bilan dastlabki tergovga o'tkaziladi. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi - jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni tekshirishning o'ziga xos filtrlovchi bosqichi hisoblanadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining o'ziga xos vazifalari mavjud:

1) *jinoyat ishini qo'zg'atish uchun qonuniy sabab va asoslar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlanadi;*

2) *sodir etilgan yoki sodir etilayotgan jinoyatga nisbatan o'z vaqtida chora ko'rilishi ta'minlanadi;*

3) *jinoyat izlari va jinoyatga aloqador ma'lumotlar aniqlanadi;*

4) *jinoyat sanalmaydigan qilmishlarni keyingi bosqichga o'tishga yo'l qo'ymaydi;*

5) *protsessual majburlov choralari qo'llanilmagan holda jinoiy ta'qib qilinadi;*

6) *ushbu bosqichi shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini daxlsiz saqlashga xizmat qiladi;*

7) *jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul qilinishi bilanoq dastlabki tergov harakatlari o'tkazilishi lozimligini bildiradi va majburiy xususiyat kasb etadi;*

8) *jinoyat ishi tergovga tegishliligiga qarab yuboriladi;*

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, jinoyat ishini qo'zg'atish instituti O'zbekiston Respublikasi jinoyat sudlov ishlarini yuritish tizimida qonuniylik va asoslilikni ta'minlovchi eng muhim protsessual kafolatlardan biri hisoblanadi. Mazkur bosqich jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar yuzasidan dastlabki huquqiy baholashni amalga oshirish, jinoyat alomatlari mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash hamda keyingi

bosqichga o'tish uchun huquqiy asos yaratish vazifasini bajaradi. Shu ma'noda u jinoyat protsessidagi "filtr" vazifasini o'tab, bir tomondan jinoyatga nisbatan o'z vaqtida chora ko'rishni ta'minlasa, ikkinchi tomondan fuqarolarni asossiz ravishda jinoiy ta'qib doirasiga tortish xavfini cheklaydi.

Amaliyotda jinoyat ishini qo'zg'atishda huquqbuzarliklar ko'p uchrashi (ariza va xabarlarini qayd etmaslik, rad etish qarorlarini asossiz qabul qilish, jinoyatlarni yashirish, prokuror aralashuvi bilan qarorlarni bekor qilish holatlari) ushbu institutni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, jinoyat haqidagi xabarlarini hisobga olish tizimidagi kamchiliklar davlatning konstitutsiyaviy majburiyati — inson huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish vazifasiga bevosita daxl qiladi. Shu nuqtai nazardan, Jinoyat kodeksiga jinoyatni hisobdan qasddan yashirish uchun jinoiy javobgarlik belgilangani va strategik hujjatlarda bu yo'nalish ustuvor etib belgilangani institutning ahamiyatini yanada kuchaytirgan.

Jinoyat ishini qo'zg'atish institutini saqlab qolish va uning protsessual reglamentatsiyasini takomillashtirish: qonuniylik va asoslilikni ta'minlaydi; jinoyatlarni yashirishning oldini oladi; asossiz jinoiy ta'qib xavfini pasaytiradi; dalillar saqlanishi va jinoyat izlarini qayd etishga xizmat qiladi; inson huquqlari kafolatlarini amalda ta'minlash mexanizmlarini kuchaytiradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: O'zbekiston, 2025.
3. Uzakov Sh.Sh. Dastlabki tergovda jabrlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini prokuror tomonidan ta'minlanishi. Avtoref.diss...yuridik. fan. falsafa. dokt (PhD). T., Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, 2024. – B. 2.
4. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 6 sentabrdagi O'RQ-442-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017 y., 36-son, 943-modda.
5. Гаврилов Б.Я. Реалии и мифы возбуждения уголовного дела // Уголовное судопроизводство. 2010. № 2. С. 7–10.
6. Уголовный процессуальный кодекс Украины от 13 апреля 2012 года № 4651-VI (с [изменениями и дополнениями](#) по состоянию на 31.07.2025 г.).
7. Уголовно-процессуальный кодекс Грузии от 9 октября 2009 года № 1772-Iic (с [изменениями и дополнениями](#) по состоянию на 16.04.2025 г.).
8. Kayumov Sh. GFR, Fransiya, Belgiya va Italiya kabi davlatlarda xususiy ayblov institutining o'ziga xos xususiyatlari. ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI. 2025 yil 6(27)-soni. – B. 74.
9. Корж В.П. Уголовно-процессуальное законодательство Украины: новации, коллизии, проблемы реализации//Вестник нижегородской правовой академии. 2015. №5. С. 51.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "Mamlakatda jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurash holati to'g'risida"gi 2018 yil 11 avgustdashi 1896-III-sonli qo'shma qarori.
11. <http://m.xabar.uz/huquq/chirchiqlik-manyak-jinoyatlarni>
12. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: O'zbekiston, 2025.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
14. Сидоренко О.В. Доказывание на стадии возбуждения уголовного дела и участие в нем сотрудников органов внутренних дел: автореферат дис. ... канд. юрид. наук. Волгоград, 2018. С. 16.
15. Манова Н.С., Францифоров Ю.В. Проблемные аспекты стадии возбуждения уголовного дела по новому УПК РФ // Российский судья. 2003. № 5. С.21.
16. Химичева Т.П. Досудебное производство по уголовным делам: Концепция совершенствования уголовно-процессуальной деятельности. Монография. М.: Экзамен, 2003. С.98
17. Мичурин В.С. Нарушения уголовно-процессуальных норм при возбуждении и прекращении уголовных дел, способы их устранения: дис....канд. юрид. наук. Москва, 2004. С.61
18. Уголовный процесс: учебник / А.В. Смирнов, К.Б. Калиновский; под общ. ред. проф. А.В. Смирнова. 4-е изд., перераб. И доп. М.: КНОРУС, 2008. С.313.
19. Kayumov Sh. GFR, Fransiya, Belgiya va Italiya kabi davlatlarda xususiy ayblovlarni institutining o'ziga xos xususiyatlari. ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI. 2025 yil 6(27)-soni. – B. 74.
20. Гирько С.И. О некоторых проблемных вопросах процессуальной регламентации ускоренного досудебного производства // Российский следователь. 2010. № 15. С. 16.
21. Макаркин А.И. Состязательность на предварительном следствии / науч. ред. В.В. Вандышев. СПб., 2004. С. 76-77.
22. Дикарев И.С. Стадия возбуждения уголовного дела – причина неоправданных проблем расследования // Российская юстиция. 2011. № 11. С. 38–40.
23. Бойков А.Д. Третья власть в России. Книга вторая – продолжение реформ. М.: «Юрлитинформ», 2002. С. 119.
24. Жогин Н.В., Фаткуллин Ф.Н. Возбуждение уголовного дела. М.: Госюриздат, 1961. С.30.
25. Деятельность милиции в уголовном процессе. М., 2006. С. 235–236.
26. Копылова О.П. Проверка заявлений и сообщений о преступлениях. СПб., 1999. С. 11
Сидоров В.Е. Начальный этап расследования: организация, взаимодействие, тактика. М., 1992. С.98-122. Пидюков П. П. Отказ в возбуждении уголовного дела по нереабилитирующим основаниям: автореф. дис.... канд. юрид. наук. Киев. 1990. С.14.
27. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года № 231-V (с изменениями и дополнениями по состоянию на 16.09.2025 г.).
28. Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 129 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 09.08.2025 г.).
29. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Таджикистан от 3 декабря 2009 года (с изменениями и дополнениями по состоянию на 03.01.2024 г.)

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).